

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 72 (1671), 2026-yil 12-aprel, yakshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news



## O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTONNING STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI DO‘STLIK ALOQALARINI YANADA RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev 11-aprel kuni amaliy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ldi.



Oliy martabali mehmonni Buxoro xalqaro aeroportida davlatimiz rahbari kutib oldi.

Milliy kuy-cho‘shiq va raqslardan iborat tantanali kutub olish marosimi bo‘ldi. Ikki mamlakatning davlat bayroqlari ko‘tarildi va faxriy qorovul saf tortildi.

O‘zbekistonning tashqi siyosatida qo‘shni davlatlar, xususan, Qozog‘iston bilan munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Ikki qardosh mamlakat o‘rtasidagi aloqalar nafaqat strategik sheriklik, balki chin ma‘nodagi ittifoqchilik tamoyillari asosida mustahkamlanmoqda. Bu esa mintaqada barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta‘minlashning eng muhim omili bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilik ruhida ushbu yaqinlik xalqlarimizning tarixiy va ma‘naviy ildizlari mustahkamligiga asoslanadi. Davlatlarimiz rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli chegaralar do‘stlik va hamkorlik ko‘prigiga aylandi. Iqtisodiy va madaniy aloqalar izchillik kasb etdi.

Mazkur amaliy tashrif ham ikki mamlakat o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik kun tartibini yanada kengaytirish va kelajakdagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilab olish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. O‘zbekiston va Qozog‘iston nafaqat iqtisodiy sheriklar, balki umumiy taqdiri va kelajagi bir bo‘lgan, mintaqaviy yaxlitlikni ta‘minlovchi qudratli kuch sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev dastlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan birgalikda Bahouddin Naqshband maqbarasini ziyorat qildi.

Qadimiy Buxorodan 12 kilometr uzoqlikda joylashgan majmua mintaqadagi eng muhim ziyoratgohlardan biri hisoblanadi. Bu yerda XIV asrning yirik ulamasi — naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband dafn etilgan.

O‘zbek va qozog‘ xalqlarining dini, ma‘naviy qadriyatlarini bir. Yurtimizda yashagan avliyo va allomalar Qozog‘istonda ham e‘zozlanadi. Buyuk ajdodimiz Bahouddin Naqshband ana shunday siymolardan biridir.

Ansambll asrlar davomida shakllangan bo‘lib, bugungi kunda uning tarkibida maqbara, Abdulazizxon tomonidan ziyoratchilar uchun qurilgan xonaqoh, ikkita masjid, shayboniylar, ashtarxoniyalar va mang‘itlar sulolalari amirlari dafn etilgan daxma, shuningdek, so‘fiylik tarixiga bag‘ishlangan muzey o‘rin olgan.

O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan majmua yanada obod qilinib, tarixiy qiyofasi tiklandi. Avvalo, Toqi miyona darvozasidan boruvchi tarixiy yo‘lak qayta ta‘mirlandi. Toqi miyona darvozasining ikki yoni boqqa aylantirildi. Muzey va tahoratxona barpo etilgan. Mang‘itlar sulolasiga mansub bo‘lgan Buxoro otaligi Doniyo‘lbiy qurdirgan madrasa ta‘mirlanmoqda.

Tashrif davomida Qur‘on oyatlari tilovat qilinib, qardosh xalqlarimizga tinchlik va farovonlik tilab, duo o‘qildi.

Buxoro shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston — Qozog‘iston do‘stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish hamda mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Muzokaralar avvalida davlatimiz rahbari Qozog‘iston Prezidentini yangi Konstitutsiya bo‘yicha referendum muvaffaqiyatli o‘tkazilganini bilan tabrikлади.

Hududlarda munozam ravishda norasmiy uchrashuvlar o‘tkazish yaxshi an‘anaga aylanib, ikki tomonlama va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalarni ochiq va konstruktiv muhokama qilishga xizmat qilayotgani ta‘kidlandi.

O‘tgan yil noyabr oyida Qozog‘iston Prezidentining O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida erishilgan kelishuvlarning amaliy natijalari mamnuniyat bilan qayd etildi.

Barcha darajalardagi aloqalar, jumladan, hukumatlararo va parlamentlararo hamkorlik faollashti.

Tovar ayirboshlash barqaror o‘tib, o‘tgan yili 5 milliard dollarga yetdi. Avtomobilsozlik, infratuzilmani rivojlantirish, logistika,

elektrotexnika, qurilish materiallari va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Kimyo, geologiya, energetika, avtomobillar uchun butlovchi qismlarni ishlab chiqarish va boshqa sohalaridagi bir qator yangi tashabbuslar ko‘rib chiqildi.

Transport va logistika sohasida o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. Chegaraoldi infratuzilmani modernizatsiya qilish, to‘siqlarni bartaraf etish va tashqi bozorlarga chiqishni ta‘minlaydigan samarali transport yo‘laklarini yaratish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligi ta‘kidlandi.

Shuningdek, tomonlar “Qambarota” gidroelektr stansiyasi qurilishi kabi yirik mintaqaviy loyihalarni jadallashtirish va “yashil” energiya eksporti bo‘yicha tashabbuslarni ilgari surish masalalarini ham muhokama qildilar.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish va mintaqaviy ekologik tashabbuslarni ilgari surish, shu jumladan, chegaradosh hududlarda “Toza havo” loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha birgalikda ishlash muhimligi qayd etildi.

Yetakchilar innovatsion va yuqori texnologik sohalarida, jumladan, kosmik texnologiyalar, raqamlashtirish, elektron tijorat va startaplarni qo‘llab-quvvatlash borasidagi hamkorlikni rivojlantirishga intilish qat‘iyiligi bildirildi.

Madaniy-gumanitar almashinuvlarni faollashtirish, jumladan, madaniyat kunlari, yoshlar forumlarini o‘tkazish, kreativ iqtisodiyot va turizm sohasidagi hamkorlikni mustahkamlashga kelishib olindi.

Davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashdilar.

Uchrashuv davomida bosh vazirlar o‘rinbosarlarining savdo-iqtisodiy kun tartibidagi dolzarb jihatlari, jumladan, yaqin istiqbolida o‘zaro savdoni 10 milliard dollarga yetkazish borasida ko‘rilayotgan choralar bo‘yicha hisobotlari tinglandi.

Muzokara yakunida hukumatlarga erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish topshirildi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev Buxoro viloyati hokimligi situatsion markazi faoliyati bilan tanishdilar.

Mamlakatimizda joylardagi ijro etuvchi hokimiyat organlari ishini ularni yagona manzilda jamlagan holda tashkil etishga qaratilgan mahalliy davlat boshqaruvining yangi modeli izchil joriy etilmoqda. Bunday yondashuv idoralar faoliyatining o‘zaro muvofiqlashtirish oshirish, qarorlar qabul qilishni tezlashtirish va aholini o‘ylantirayotgan muammolarni yanada samaraliroq hal qilishga xizmat qiladi.

Viloyat boshqaruvining intellektual o‘ziga aylangan zamonaviy situatsion markaz Buxoroning yangi ma‘muriy markazida tashkil etildi. Bu yerda dastlabki bosqichda viloyat va

shahar hokimliklari, viloyat prokuraturasi, ichki ishlar boshqarmasi hamda boshqa tuzilmalar joylashgan.

Markazda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdan tortib, investitsiya loyihalarni amalga oshirish, kommunal va transport infratuzilmasi, jamoat xavfsizligi holati, fuqarolar murojaatlari bilan ishlashgacha, umuman, viloyat hayotining barcha jabhalari bo‘yicha ma‘lumotlar real vaqt rejimida shakllanadi, qayta ishlanadi va tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Oliy martabali mehmonga markazning hududlar kesimida vaziyatni kompleks monitoring qilish, muammoli nuqtalarni barvaqt aniqlash, joylardagi ish samaradorligini xolis baholash va belgilangan vazifalarning bajarilishini qat‘iy nazorat qilish bo‘yicha imkoniyatlari aniq misollar asosida ko‘rsatib berildi.

Shundan so‘ng yetakchilar hokimlik xodimlari uchun yaratilgan sharoitlarni ko‘zdan kechirdilar. Yangi bino zamonaviy ish joylari, majlislar zalari, raqamli infratuzilma bilan jihozlanib, davlat idoralarning samarali va uyg‘un bo‘lib ishlashi uchun barcha zarur qulayliklar ta‘minlangan.

Tashrif davomida Qozog‘iston Prezidentiga noyob arxiv materiallarining nusxalari ham ko‘rsatildi. Bu O‘zbekistonda aniqlangan, Turkistonda joylashgan Xoja Ahmad Yassaviy va Mirzo Ulug‘bekning qizi Robiya Sultonbegim maqbaralariga aloqador 1920-1950-yillarga oid qimmatli hujjatlar, chizmalar va fotomateriallardir. Qardosh qozog‘ xalqiga va ikki mamlakatning umumiy tarixiga hurmat belgisi sifatida ushbu arxiv hujjatlarining nusxalari Qozog‘iston tomoniga hadya qilindi.

Hozirgi kunga qadar aksariyatni ilmiy muomalaga kiritilmagan bu materiallar katta tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega ekanini qayd etildi. Noyob me‘morlik yodgorliklari bo‘lgan Ahmad Yassaviy va Robiya Sultonbegim maqbaralari Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy tarixiy-madaniy merosida alohida o‘rin tutishi ta‘kidlandi.

So‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev Buxoro shahrida universal sport majmuasida o‘tkazilayotgan “National AI Hackathon” — sun‘iy intellekt bo‘yicha umummilliy xakatonga tashrif buyurdilar.

Ushbu tadbir davlatimiz rahbari tashabbusi bilan O‘zbekistonda sun‘iy intellekt ekotizimini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan izchil siyosat doirasida tashkil etildi.

Yetakchilarga raqamlashtirish va sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish borasidagi ishlar natijalari taqdimot qilindi. Xususan, “Raqamli hukumat” tizimi, transport, bojxona, soliq, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, energetika, geologiya, qurilish va qishloq xo‘jaligi sohalaridagi yechimlarni o‘z ichiga olgan raqamli transformatsiya jarayonlari haqida axborot berildi.

Mazkur sohalmi raqamlashtirish davlat boshqaruvini samaradorligini oshirish va aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilayotgani ta‘kidlandi.

Shuningdek, O‘zbekiston va Qozog‘iston startaplarni qo‘llab-quvvatlash hamda ilgari surish ekotizimi taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Davlat rahbarlari “KPI-COM”, “OSON”, “DATOX” va boshqa istiqbolli startap loyihalari faoliyati bilan tanishdilar hamda ularning tashabbuskorlari bilan mulohaza qildilar.

Milliy va xorijiy akseleratorlar, jumladan, “UZUM”, “TBC Bank”, “Aloqabank”, “HUMO”, “UZCARD” faoliyati to‘g‘risida ma‘lumotlar tinglandi.

Venchor infratuzilmasini yanada rivojlantirish va yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash muhimligi ta‘kidlandi.

Bank sohasining yutuqlari, xususan, raqamli bank xizmatlari va zamonaviy to‘lov yechimlarining rivojiga alohida e‘tibor qaratildi.

Davlat rahbarlariga xakaton o‘tkazish konsepsiyasi va ishtirokchilarning turli sohalaridagi dolzarb muammolarni hal qilishga qaratilgan loyihalari taqdim etildi.

Ochiq mulohaza davomida yoshlarda mazkur sohaga qiziqishi yuqoriligi, yigit-qizlarning ijodiy salohiyati va sun‘iy intellekt texnologiyalarini amaliy qo‘llashga bo‘lgan ishtiyoqi yuqori baholandi.

Tashrif yakunida Prezidentlar xakaton ishtirokchilari va startap hamjamiyati vakillari bilan esdalik uchun suratga tushdilar.

Davlat rahbarlari Buxoro shahrida raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishning to‘liq zanjirini yo‘lga qo‘ygan “Nigora” kompaniyasiga tashrif buyurdilar.

Ushbu loyihaning qiymati 35 million dollarni tashkil etib, 2024-yil avgust oyida muvaffaqiyatli ishga tushirilgan. Bu yerda 840 nafar xodim ish bilan ta‘minlangan, ularning aksariyatini ayollar tashkil etadi.

Yaponiya, Italiya, Belgiya va Germaniyadan keltirilgan yuqori texnologik uskunalar xalqaro bozorlarda dastlab raqobatlashish hamda har yili 20 million pagon metr tayyor mato va 1 million dona to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish imkonini beradi.

Prezidentlarga tayyor kiyim-kechak va matolar namunalari namoyish etildi. “Shoyigul” brendi ostida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar asosan Yevropa mamlakatlariga, xususan, Italiya, Avstriya, Buyuk Britaniya va Germaniyaga eksport qilinmoqda.

Davlat rahbarlari kompaniyaning yillik eksportini 10 million dollarga olib chiqish, ishlab chiqarishni kengaytirish hamda kelgusida sintetik tola va aralash matodan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish rejalariini yuksak baholadilar.

Tadbirlar yakunlangach, oliy martabali mehmonni Buxoro xalqaro aeroportida davlatimiz rahbari kuzatib qo‘ydi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Buxoro viloyatiga tashrifi yakunlandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,  
Ikror AVVALBOYEV,  
Zarif KOMILOV,  
O‘ZA maxsus muxbirlari



Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

## VATANPARVARLIK — YURT HIMOYASI UCHUN MUSTAHKAM QALQON

Bugungi tahlilki zamonda mustaqillik, tinchlikning qadri har qachongidan ham muhim. Bu bebaho ne‘matni asrash, keyingi avlodlarga uni bezavol yetkazish — muqaddas burchimiz. Shu ma‘noda, Mustaqillik bayrami nafaqat huquq e‘tirofi, balki eng aziz ayyomdir. Mana, 35 yildirki, bu sanani ko‘p millatli xalqimiz katta tantana qilib kelyapti.



Davlatimiz rahbarining joriy yil 1-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori qutlug‘ sanaga munosib tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlarni qamrab olgani barobarida yangi O‘zbekistonimiz shon-shavkati, qudratini yanada yuksaltirish, bu boradagi yutuqlarimizni keng yoritishga qaratilgan.

Jumladan, milliy istiqlolimizning 35 yilligini yangi O‘zbekistonning bugungi ulkan salohiyati va jahon maydonidagi nufuziga muvofiq yuksak darajada, munosib nishonlash maqsadida yurtimiz tinchligi va chegaralarimiz daxlsizligini ta‘minlashga xizmat qiluvchi mudofaa tizimini mustahkamlash yo‘nalishidagi islohotlarni yoritish alohida vazifa sifatida belgilandi.

Davomi 3-beta



“YANGI O‘ZBEKISTON QIYOFASIDAGI HUDUD” mahallalarga obodlik, qablarga shodlik ulashayotgan loyiha

So‘nggi o‘n yillikdagi islohotlar tufayli Zo‘yovon tumanidagi iqtisodiy-ijtimoiy hayot tubdan o‘zgardi. O‘tgan asrning 50-yillari Markaziy Farg‘onadagi qum barxani o‘rnida tashkil etilgan tumanga yillar davomida faqat xomashyo yetkazib beradigan hudud sifatida qaralar edi.

Davomi 3-beta

2026-yil 12-aprel, 72-son

TARTIBLI TAHLILGA ASOSLANGAN VA ANIQ MAQSADGA YO'NALTIRILGAN SOHA

YURTDOSHLARIMIZ ENDI ODDIY ISHCHI EMAS, BALKI MALAKALI, RAQOBATBARDOSH MUTAXASSIS SIFATIDA JAHON MEHNAT BOZORIGA KIRIB BORMOQDA

Bandlik

Yaqinda AQSHning USAFarmLabor tashkiloti bilan hamkorlik shartnomasi imzolandi. Shartnomaga ko'ra, O'zbekiston fuqarolari Qo'shma Shtatlardagi qishloq xo'jaligi sohasidagi mavsumiy ishlarga jalb etiladi.



Mazkur tashkilot 22 yildan buyon H-2A dasturi doirasida AQSH qishloq xo'jaligi sohasidagi mavsumiy ishlarga xorijliklarni jalb qilish bilan shug'ullanadi. Hozir Shimoliy Amerika hududida 1400 dan ortiq fermer xo'jaligi va rancho bilan hamkorlik shartnomasiga ega.

Xorijiy mamlakatlar bilan migratsiya masalasidagi hamkorlik, eng avvalo, aholi bandligi va daromadi ortishi, shuningdek, pul o'tkazmalari hajmi o'sishi orqali iqtisodiy manfaatdorlik keltiradi.

Yil sayin yurtdoshlarimiz uchun yangi mehnat bozorlari ochilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, an'anaviy mehnat bozorlariga qo'shimcha ravishda Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlangan davlatlardan pul jo'natmalari keskin o'sgan. Xususan, o'tgan 2025-yilda chet eldan O'zbekistonga kelib tushgan pul o'tkazmalari oldingi yildagiga nisbatan 28 foiz ko'paygan.

Bugun global mehnat migratsiyasi iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib ulgirdi. Millionlab insonlar o'z yurtidan tashqarida mehnat qilib, nafaqat oilasi daromadini ta'minlamoqda, balki mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga ham hissa qo'shmoqda.

Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun mehnat migratsiyasi valyuta tushumlari, bandlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston uchun ham yo'nalish strategik ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda vatandoshlarimiz uchun mehnat migratsiyasi geografiyasi sezilarli darajada kengaydi.

Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ishloklar dasturlari va "O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturida ham bu borada qator vazifalar belgilangan. Jumladan, xorijda mehnat faoliyati bilan band fuqarolarga ko'rsatilayotgan huquqiy yordam ko'lamini oshirib borish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash, Migratsiya agentligining Bolgariyadagi vakolatxonasini ochish shular jumlasidandir.

Bolgariya, Italiya, Portugaliya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliyada Migratsiya agentligining faxriy vakillarini tayinlash tizimini joriy etish nazarda tutilmoqda.

2025-yilda Italiya Bosh vaziri yurtimizga tashrif buyurganda O'zbekistonning o'zida tayyorlangan mutaxassis migrantlarni Italiyadagi yuqori daromadli ishlarga yuborish masalasi muhokama qilindi, bitim imzolandi. Ana shu kelishuv doirasida mutaxassis tayyorlash uchun talovlar o'tkazildi va Fodja universiteti bilan birgalikda til kurslari tashkil etildi. Ahamiyatli, bu olti oylik til kurslari uchun to'lov Migratsiya jam'armasi hisobidan amalga oshirilmogda.



Agar ilgari asosiy yo'nalishlar sifatida Rossiya, Qozog'iston, Janubiy Koreya kabi an'anaviy mehnat bozorlari ustunlik qilgan bo'lsa, bugungi kunda Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya va okean orti davlatlari kabi yangi manzillar faol o'zlashtirilmoqda.

Raqamlar jarayonning jadalligini tasdiqlaydi. Masalan, 2025-yilda xorijdagi mehnat migrantlari tomonidan yuborilgan pul o'tkazmalari hajmi 18,9 milliard dollarni tashkil etdi. Xususan, Moldova va Xorvatiyadan pul o'tkazmalari hajmi 2,5 barobar, Serbiyadan 95 foiz, Buyuk Britaniyadan 39 foiz, Turkiyadan 35 foiz oshgan.

Mehnat migratsiyasi juda qiziq jarayon. Sababi hamyurtlarimiz, yoshlarimiz chet mamlakatga borib, ish jarayonida qisqa vaqt ichida ularning mehnat tizimi, zamonaviy texnologiyalarini o'rganadi. Muhimi, vatanimizga qaytib kelib, ana shu o'rganagan kasblarini davom ettirishi uchun barcha imkoniyat yaratilmoqda, — deydi Migratsiya agentligi direktori Behzod Musayev. — O'tgan davrda mehnat migratsiyasi geografiyasi uch-to'rtta davlatdan iborat bo'lgan, hozirgi kunda esa bu sohada 34 ta davlat bilan hamkorlik qilinmoqda. Asosiy, bu jarayon yanada kengaymoqda.

So'nggi yillarda xorijda ishlayotgan yurtdoshlarimiz va oilasini qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy qilingan imtiyozlar ko'lamini kengaytirish, chet ellarda ularning haq-huquqlarini kafolatlash, xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini yo'lga qo'yish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, xorijdagi mehnat migrantlari faoliyati monitoring qilinib, mehnat shartnomasi shartlari bajarilishi, mehnat migrantlarining mehnat qilish va yashash sharoitlari o'rganilmoqda. Muammolarni joyida hal etishga harakat qilinayapti.

O'zbekistonning diplomatik vakolatxonalari tomonidan yurtdoshlarga ishloklar, shu jumladan, yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar to'g'risida ma'lumotlarni yetkazish, milliy qadriyatlarga yo't o'yalardan muhofaza etish doirasida xorijda ta'lim olayotgan o'zbekistonlik talabalar bilan muntazam sayyor qabul va davra subhatlari o'tkazib kelinmoqda.

Aytish joizki, xorijga ishga joylashtirish qonun bilan tartibga solingan jarayon. Bu ish bilan nafaqat Migratsiya agentligi, balki agentlik tomonidan litsenziya berilgan xususiy bandlik agentliklari ham shug'ullanmoqda. Albatta, xorijda ish taklifini olgan har bir fuqaro bu taklif kim tomonidan berilayotgani to'g'risida surishtirishi, barcha hujjatlarni ko'rish shart.

Eng muhimi, bu jarayonda inson kapitali qiymati oshib bormoqda. Yurtdoshlarimiz endi oddiy ishchi emas, balki malakali, raqobatchilik mutaxassis sifatida jahon mehnat bozoriga kirib bormoqda. Natijada o'zbekistonlik mehnat migrantlariga to'lanadigan ish haqi ham sezilarli darajada o'syapti. Bu esa, tabiiyki, mamlakatimizga kelib tushayotgan valyuta oqimi ortishiga xizmat qilib, milliy iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Lutfulla SUVONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

www.yuz.uz yuz.uznews yuz\_official yuz.uz\_news yuz.uz\_news



Raqamlashtirish

Mamlakatimizda sud va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimi bosqichma-bosqich isloh etilyapti. Bunda raqamlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Tahlillarga ko'ra, 2025-yili davlat ijrochilari tugatuv boshqaruvchilariga qariyb 63 mingta hujjatni qog'oz shaklida yuborgan. Soliq qarzi bo'yicha yuridik shaxsning mol-mulkini soliq xodimi ham, Majburiy ijro byurosi xodimi ham xatlamogda. Kredit qarzdorligi bo'yicha yuridik shaxsning mol-mulkini xatlash uchun 1-2 kun vaqt ketmogda.



SUD HUJJATLARI IJRO TIZIMI TRANSFORMATSIVASI

Prezidentimizning shu yil 30-martdagi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini raqamlashtirish va samaradorligini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan bu borada yangi huquqiy mexanizmlar belgilandi.

Farmonga binoan, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimi transformatsiya qilinadi. Shu maqsadda 2027-yil 1-yanvardan boshlab sun'iy intellektni joriy etish va axborot tizimlarini takomillashtirish orqali inson omili ishtiroki kamaytiriladi, davlat ijrochisining aralashuvishi 30 foiz ishing jirosi ta'minlanadi, qabul qilinadigan qarorlarning kamida 70 foizi avtomatlashtiriladi.

Ijro ishi yurituvchi jarayonini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida elektron shaklda yuritish va undirilgan pul mablag'larini undiruvchilarga taqsimlash jarayoni ham avtomatlashtiriladi.

Hujjatga binoan MIB organlari zimmasiga ham qator vazifalar yuklatildi. Xususan, undirilgan mablag'larni undiruvchiga yetkazishdagi ortiqcha qog'ozbozlikka barham berish maqsadida pul mablag'larini taqsimlash jarayoni to'liq raqamlashtirildi, — deydi Majburiy ijro byurosi direktorining birinchi o'rinbosari Shavkat Haydarov. — Bugun undiruvchilarning 7 toifadagi ijro hujjatini majburiy undiruvga qaratishdagi tartib-taomillar juda murakkab. Misol uchun, yuridik shaxsdan pul mablag'larini undirish to'g'risidagi ijro hujjati dastlab qarzdorga xizmat ko'rsatuvchi tijorat bankiga topshiriladi. Tijorat banki hujjatni ijro etmaganidan keyingina majburiy ijroga qaratiladi. Endi undiruvchilarga qulaylik yaratish maqsadida farmon bilan ijro hujjati to'g'ridan to'g'ri majburiy undiruvga qaratilishi huquqi belgilandi. Farmondan ko'zlangan asosiy maqsad ham ijro hujjati bo'yicha qarzdorlik mavjudligi haqida tezkor va qulay sharoitda xabarot qilishdan iborat.

Bugun fuqarolar chet elga chiqish yoki mulklarini rasmiylashtirish vaqtda o'ziga nisbatan cheklovlar borligini bilyapti. Bu esa aholiga noqulaylik yaratib, haqli e'tirozlarga sabab bo'lmoqda. Shu paytgacha Yagona

interaktiv davlat xizmatlari portali hamda MIBning rasmiy sayti orqali fuqarolar o'zining qarzdorligi haqida xabarot bo'lishi mumkin edi. Ahamiyatli, endi fuqarolar to'lov tizimlari orqali ham bunday ma'lumotlarni olish imkoniga ega bo'ladi.

2026-yil 1-iyuldan boshlab sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlariga asosan davlat daromadiga o'tkazilishi nazarda tutilgan avtomotransport vositalari va ko'chmas mulklar davlat ijrochisining qarori asosida to'g'ridan to'g'ri Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tasarrufiga o'tkaziladi.

Bundan tashqari, 2026-yil 1-sentabrga qadar to'lovga qobiliyatsizlik jarayonidagi yuridik shaxslarning majburiyatlari, shuningdek, ijro ishlari doirasida fuqarolar amalga oshirgan kommunal to'lovlar bo'yicha elektron ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yildi.

Energetika vazirligi "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ va "Hududga'taminot" AJ bilan birga joriy yil 1-iyulga qadar ijro ishlari doirasida fuqarolarning kommunal to'lovlari bo'yicha elektron ma'lumot almashinuvini "Raqamli hukumat" tizimi orqali yo'lga qo'yadi.

2026-yil 1-maydan boshlab aliment to'lovini undirish tizimi samaradorligini oshirish maqsadida aliment bo'yicha qarzdorlik mavjud bo'lganda qarzdorlik to'liq bartaraf etilguniga qadar alohida yirik bitimlarni amalga oshirish, ayrim turdagi moliya-kredit va davlat xizmatlaridan foydalanishni cheklash tartibi joriy etiladi.

Amaliyotda davlat ijrochilarining ish yuklamasi ko'pligi sabab banklar foydasiga kreditlar undirish bilan bog'liq sud

qarorlarini ijro etish muddati uzoq vaqt talab etmogda. Yangi tartib bilan bunday hujjatlarni ijro harakatlarini amalga oshirish borasida qo'shimcha imkoniyatlar taqdim etilmogda.

Jumladan, bugun banklar foydasiga muammoli kreditlarni undirish bilan bog'liq 241 mingta hujjat mavjud. Endi tijorat banklari moliyalashtiradigan mablag' hisobidan 400 ta yangi shtat birligi ochilib, muammoli kreditlar portfelini kamaytirishga erishiladi.

Bu jarayonda muammoli kreditlar bo'yicha ijro hujjatlarini asosida vujudga kelgan majburiyatlarni undirish bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirish ixtisoslashtirilgan davlat ijrochilariga yuklatiladi.

Hujjatga muvofiq, yuridik shaxslardan soliq qarzi va muammoli kreditlarni undirishda yangicha yondashuv joriy etiladi. Bunda ijro hujjatlari bo'yicha mol-mulkilarni undiruvchi rasmiylashtirgan professional hujjatlar asosida davlat ijrochisining qarori bilan onlayn auktsion orqali realizatsiya qilish imkoni yaratiladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkini xatlash, ko'zdan kechirish bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish ishlari soliq qarzini undirishga oid ijro hujjatlari bo'yicha — soliq organining mansabdor shaxsi, garov bilan ta'minlangan majburiyatlarni bajarish to'g'risidagi ijro hujjatni yuzasidan banklarning vakolati shaxslari tomonidan bajariladi.

Yangi tartibni joriy etish orqali "soliq — bank — davlat ijrochisi" tamoyili asosida qarzdorlikni o'z vaqtida undirish hamda davlat ijrochilarining ish yuklamasini kamaytirishga erishiladi. Bunda rasmiylashtirilgan protsessual hujjatlar bilan bog'liq xatarlar vakolatli idoralar zimmasida qoladi.

Bugun 21 turdagi moliya-kredit va davlat xizmatlari qarzdorlik tekkirilganidan so'ng ko'rsatiladi. Yangi tartib bilan bu turdagi xizmatlar transport vositalari o'zlashtirish kabi yana 99 turdagi xizmat bilan kengaytiriladi.

Lutfulla Xayrullayev, jurnalist



Islohot odimlari

Prezidentimiz shu yil 26-27-fevral kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida muhim vazifalarni belgilab bergan edi. Xususan, yo'l va transport infratuzilmasini yanada yaxshilash borasida tizimli islohotlar qilinishi lozimligi aytilgandi. Hozir viloyatda ushbu vazifalar ijrosiga kirishilgan.



IMKONIYATLAR VOHASI: TAJRIBALAR OMMALASHIB, O'ZGARISHLAR IZCHIL DAVOM ETMOQDA

Bunday yangilanishlar viloyat tarixida bo'lmagan. Masalan, ilk bor Termiz shahridan Istanbul va Dubay shaharlariga yangi aviareyslarni yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda, — deydi oltinsoylik faxriy o'qituvchi Jo'raqul Meliqulov. — Bundan tashqari, Sho'rchi, Denov, Sariosiyo, Sherobod va Boysun tumanlariga avtobus qatnovi yo'lga qo'yiladi. Bu uzoq yillik orzumiz edi.

Viloyatdagi tomoqarlar 49 ming gektarni tashkil etadi. Ularning 35 ming gektarida yiliga 3-4 marta hosil olish imkoniyati mavjud. Bu nafaqat ulkan zaxira, balki katta iqtisodiy salohiyatdir. Agrar jihatdan imkoniyatlari keng hududda azaldan muayyan dehqonchilik maktablari shakllangan. Hozir esa vohalik dehqonlar erishayotgan natijalar, qo'lga kiritayotgan yutuqlar, qishloq xo'jaligi sohasiga tabiiq etayotgan ilmiy va innovatsion yondashuvlar respublikamiz bo'ylab ommalashmoqda. Termiz tumanidagi "Tomorqa maktabi"da yerdan samarali foydalanish, ilmiy yondashuv asosida bir yilda 5 martagacha ekin ekish tajribasi yo'lga qo'yilgan. Bu tashabbus ichki bozorni arzon va sifatli mahsulot bilan ta'minlaydi. Ayni paytda eksport hajmini oshirib, yangi ish o'rnlari yaratish imkonini beradi. "Tomorqa maktabi"da aholi yerdan samarali foydalanish, serdaromad ekin turlarini ekish, mahsulotlarni qayta ishlash va saqlashning zamonaviy usullarini o'rganadi.

Bu yerda ishsiz va kam ta'minlangan oilalarga barqaror daromad manbaiga ega bo'lishga ko'mak beriladi. Ular o'qish jarayonida dehqonchilikni ilmiy asosda o'rganadi. Ayni paytda shu yerdagi tajriba maydonlaridagi ekinlar orqali amaliy ko'nikma hosil qiladi, — deydi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi direktori Ibrohim Ergashev. — Bu yerda urug' tanlashdan to' hosil terib olishgacha bo'lgan jarayon ilmiy, amaliy tarzda o'qitib, o'rgatiladi. Surxondaryo sharoitida bir yilda 3-4 marta hosil olish amaliyoti ko'rsatib beriladi.

Xalqimizda "Erni boqsang, yer seni boqadi" degan naql bor. Chindan ham kimki yer bilan tillashib mehnat qilsa, unga mehr qo'ysa, quruq qo'l bilan qolmaydi. "Tomorqa maktabi" hududini tomosha qilarkansiz, ko'zingiz quvnaidi. Bu yerda joylashgan issiqxonalarda Surxondaryo sharoitiga moslashtirilgan banan, papayya, rozmarin, lavanda, limon, anjir, brokkoli, bulg'or qalampir va boshqa ekinlar yetishtirilmoqda. Shuningdek, ko'chatchilik va gulchilik ham yo'lga qo'yilgan.

Mahallalardagi hokim yordamchilari yiliga 2700 nafargacha tomoqara va ijara yer egasini bu manzilga o'qishga yo'naltirmogda. Shu paytga qadar bu yerda 1300 ga yaqin ishsiz va kambag'al



oila vakili kurslarini tugatib, tomoqarasi yoki ijara yerlaridan samarali foydalanaypti.

Davlatimiz rahbari tashrifidan so'ng "Tomorqa maktabi"da respublika agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi korxon va tashkilotlar rahbarlari, qishloq va suv xo'jaligi sohasi mas'ullari, O'simliklar karantini va himoyasi agentligi mutasaddilari ishtirokida seminarlar tashkil etilmogda. Maqsad oziq-ovqat

xavfsizligi va aholi bandligini ta'minlashda muhim o'rin tutadigan ushbu maktabni ko'rib, tajriba almashishdir.

Seminar ishtirokchilariga sanoatlashgan bog'lar, suv tejovchi texnologiyalar taqdimot qilinib, meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi va eksport qiluvchi tadbirkorlar bilan muluqot o'tkazildi.

Bugun shu masalalar birma-bir yechilyapti. Endi yoshlarni o'qitib, bandligini ta'minlash borasida rejali ishlarni bajarilmoqda. Bunday yondashuv o'quv jarayonini samarali tashkil qilish, talabalarning zamonaviy iqtisodiy talablarga mos kadrlar bo'lishida qo'l kelmogda.

Surxondaryoning turizm salohiyati katta. Viloyatda 561 ta madaniy meros obyekti davlat ro'yxatiga olingan. Ularning 444 tasi arxeologik yodgorlik, 32 tasi islom ziyorat turizmi va 8 tasi buddizm inshootidir. Hakim Termiziy, Sulton Saodat, Iso Termiziy majmualari, So'fi Olloyov, Mavlono Muhammad Zohid maqbarasi, Kokildor xonaqohi singari manzillarni ziyorat qilishga aholisi asosan islom diniga e'tiqod qiluvchi davlatlardan sayyohlar kelishi kuchaygan. Shuningdek, Zurmala, Dalvarzintepa, Fayoztepa, Budrachtepa, Xolchayon kabi uzoq o'tmishdan so'ylaydigan arxeologik yodgorliklarni buddaviylik diniga e'tiqod qiluvchilar kelib ko'ryapti. Yevropalik sayyohlar esa qadim Teshiktosh, Machay g'ori, Eski Termiz, Qirg'iz, Iskandar ko'prigi, Jarqo'rg'on minorasi kabi tarixiy-madaniy yodgorliklarni tomosha qilishga ishtiyoqmand.

Viloyatda turizm rivojiga qaratilgan loyihalar yangi ish o'rnlari yaratish bilan birga hududning xalqaro imijini mustahkamlash va tarixiy merosni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. — Surxondaryoga kelgan mehmonlar uning tabiati, tarixi, qadriyatlarini va an'analarni ko'rib hayratlanadi, — deydi Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashi deputati Dilbar Normurodova. — Davlatimiz rahbari tashrifidan so'ng vohada turizmni, jumladan, ekoturizm va hunarmandlikni rivojlantirish yo'lida katta qadam tashlandi. Rejadagi ishlar amalga oshib borishi bilan sayyohlar ko'payadi. Bu xalqimiz uchun qo'shimcha daromad keltiradi. Natijada iqtisodiyot bilan birga madaniy soha ham barqaror rivojlanadi.

Bularning barchasi Surxondaryoda yangilanishlar yangi bosqichda izchil davom etayotganini ko'rsatadi. Voha ahli ana shu o'sish va o'zgarishlarga munosib tarzda katta marralarni ko'zlab, maqsad sari dalil bormogda.

Sarvar TO'RAYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!



beshta asosiy fan bo'yicha abituriyentlarni tayyorlash kurslari ochiladi. Oliyoghlarning kirish imtihonlariga tayyorlash tizimi yo'lga qo'yiladi.

Shartnoma asosida o'qishga qabul qilingan askarlarga esa foizsiz imtiyozli kreditlar ajratiladi. Eng muhimi, oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan askarlar harbiy fakultetlar talabalariga tenglashtirilib, o'qishni tamomlagandan so'ng ularga zaxiradagi leytenant harbiy unvoni beriladi. Namunali xizmat o'tagan, respublika va xalqaro sport musobaqalari hamda fan olimpiadalarda birinchi o'rinni egallagan askarlarni test sinovlarisiz o'qishga qabul qilish tartibi belgilanmoqda.

Joriy etilayotgan imtiyozlardan yana biri — askarlar uchun harbiy xizmat davomida “Bitta askar — bitta kasb” tamoyili asosida 3-6 oylik o'quv kurslari tashkil etilib, ularga davlat namunasidagi maxsus sertifikat berilishidir.

Muddatli harbiy xizmat endi faqat jismoniy tayyorgarlik emas, balki yoshlar uchun hayotdagi



Lutfulla SUVONOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

VATANPARVARLIK — YURT HIMOYASI UCHUN MUSTAHKAM QALQON

turdagi vertolyot va samolyotlar o'zlashtirildi, havo mudofaasi tizimiga zamonaviy zenit-raketa majmualari joriy etildi. Poligonlarda real jangovar sharoitga yaqin mashqlar, qo'shin turlari o'rnatish hamkorlikdagi operatsiyalar, taktik va strategik o'quvlar muntazam o'tkazila boshladi.

Bugungi O'zbekiston armiyasining tezkorligi, aniqligi, intizomi va texnologik salohiyati aynan shu izchil modernizatsiya siyosatining bevosita natijasidir. Yangi texnikalar, raqamli boshqaruv tizimlari, hamkorlikda ishlovchi qo'shin turlari va malakali harbiy kadrlar mamlakatimiz Qurolli Kuchlarini Markaziy Osiyodagi eng ishonchli va jadal rivojlanayotgan mudofaa tizimlaridan biriga aylantirdi.

Ayni yo'nalishdagi islohotlarning asosiy mazmun-mohiyati zamonaviy boshqaruv va muvofiqlashtirish tamoyillarini joriy etish, qo'shinlarni boshqarish tizimini takomillashtirish, shuningdek, harbiylarni ilg'or, yuqori texnologik qurol-yarog' va harbiy texnika namunalari bilan bosqichma-bosqich jihozlashdan iborat.

Shu bilan birga, shaxsiy tarkibning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligiga yondashuvlar tubdan yangilandi. Milliy armiyamiz yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mardlik va shon-sharaf maktabiga aylandi. Asosiy, “Xalq va armiya — bir tanu bir jon” tamoyili amalda qaror topib, soha rivojiga yangicha kuch va sifat bag'ishlanmoqda. Harbiy xizmatchilarda yuksak vatanparvarlik ruhi, mustahkam iroda, yuqori mas'uliyat hissi hamda kasbiy mahoratni muntazam oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari mamlakatimizning davlat suvereniteti va hududiy



yxillitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuzilishi belgilab qo'yildi.

Harbiy xizmatchilar va oila a'zolari, faxriylarning ijtimoiy himoyasi kuchaytirilgan natijasida qo'shinlarning jangovar tayyorgarlik samaradorligi, harbiy xizmatchilarning professionalligi, jangovar ruhi va psixologik shayli sezilarli darajada oshdi. Ular uchun munosib xizmat va yashash sharoitlarini yaratish, ijtimoiy kafolatlarni kuchaytirish orqali armiyaning jamiyatdagi nufuzini oshirishga erishilmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan harbiy oliy ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi va sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqildi.

Harbiy muassasalar faoliyatida kadrlarni ilg'or texnologiyalar asosida tayyorlash bo'yicha yangi tizim joriy qilinadi. Jumladan, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining tashkil etilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlardan biri bo'ldi. Natijada yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega harbiy kadrlar tayyorlash imkoniyati yanada kengaydi.

Ta'lim jarayoniga o'qitishning ilg'or raqamli texnologiyalari, jumladan, sun'iy intellektga asoslangan va zamonaviy baholash tizimlari joriy etilgan harbiy kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqdi.

Yangi tahrirdagi “O'zbekiston — 2030” strategiyasi asosida bu borada boshlangan ishlar

endi mutlaqo yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Xususan, Qurolli Kuchlarning raqamli salohiyatini oshirish va axborot xavfsizligini ta'minlash, harbiy xizmatchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Joriy yil 6-aprel kuni mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va harbiy xizmatchilarni qo'llab-quvvatlash masalalari yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda ham bu borada qator muhim vazifalar belgilandi.

Bugun mamlakatimizda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Yigit-qizlarning zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashi hamda bandligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha izchil islohotlar davom ettirilmoqda. Xususan, Xavfsizlik kengashining joriy yil 13-yanvar kuni o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishida harbiy xizmat nufuzini yanada oshirish hamda yoshlarning jamiyatda munosib o'rin topishiga ko'maklashish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan edi. Bu boradagi islohotlarning mantiqiy davomi sifatida muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlarni kasbga o'rgatish va sifatli ta'lim olishi uchun sharoit yaratish hamda armiyada kitobxonlikni ommalashtirishga qaratilgan hujjatlar imzolandi.

2026/2027-o'quv yilidan boshlab muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlarga qator imtiyoz hamda kafolatlar berilishi nazarda tutilmoqda. Endi muddatli harbiy xizmatchilar uchun harbiy xizmat davrida oliyoghlarga o'qishga kirib, masofaviy ta'lim olish imkoniyati yaratilmoqda. Bu jarayonda askarlar uchun ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda harbiy qismlarda



muvaffaqiyat yo'lga aylanib, jamiyatda o'z o'rnini topishida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Eng asosiy, yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun yuqori bilimli, malakali va intellektual salohiyatga ega vatanparvarlar zaxirasi shakllanadi.

Umuman olganda, keng ko'lami islohotlar mamlakatimizda harbiy qurilishning puxta o'ylangan kompleks va izchil modeli shakllanayotganidan dalolat beradi. Uning markazida esa zamonaviy, professional, yuksak jangovar salohiyatga ega, jamiyat ishonchiga sazovor bo'lgan va har qanday tahdidlarga samarali javob qaytara oladigan Qurolli Kuchlar turibdi. Bunday armiya esa, shubhasiz, davlatimiz xavfsizligi va barqaror taraqqiyotining ishonchli kafolatidir.

“YANGI O'ZBEKISTON QIYOFASIDAGI HUDUD”

mahallalarga obodlik, qalblarga shodlik ulashayotgan loyiha

Boshlanishi 1-betda

Hatto yaqin-yaqingacha tumanda paxtani birlamchi qayta ishlash tarmog'i ham qurilmagan. Oqibatda ishsizlik darajasi yuqorilab bordi. Mehnatga yarasha manfaat ko'rmagan aksariyat yoshlar ish izlab xorijga ketishga majbur bo'ldi. Yo'l, suv, tabiiy gaz, elektr ta'minoti bilan bog'liq masalalar aholining haqli e'tiroziga sabab bo'lib kelayotgandi. Hozir tuman tom ma'noda yangi O'zbekistonning qiyofasiga aylanib bormoqda.

— Prezidentimizning “Alohida tuman (shahar) va mahallalarni aholining yashashi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun namunali hududga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, Yozyovonga “Yangi O'zbekiston qiyofasidagi hudud” maqomi berildi. Hozir uni namunaviy hududga aylantirish ishlari boshlab yuborildi, — deydi tuman hokimi Dilshodjon Jalilov. — Bu maqsad ro'yobi uchun 100 milliard so'm ajratilgan. Shu orqali infratuzilmani yaxshilab, tadbirkorlikni kengaytirish bati ishtirokchilari loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Loyihalar dasturiga ko'rsatib beradigan o'ziga xos “tashrif qog'oz”dir. Bularni zamonaviy ko'rinishga keltirish, sotuvchi, xaridorlar uchun qulay sharoit yaratishga e'tibor berilyapti. Maqsad — aholi hayot tarzi uchun zarur imkoniyat yaratib, ish bilan bandlikni ta'minlash, kambag'allikka barham berish. Shu maqsadda “Yangi O'zbekiston qiyofasidagi



hudud” ga aylantirish uchun tumandagi “Soyyoni”, “Yuqori” hamda “Qoratepa” MFYlarning har biriga 5 milliard so'mdan ajratildi.

Tumanda “Yangi O'zbekiston” massivi barpo etilmoqda. Umumiy maydoni 65 gektar yerda 104 ta ko'p qavatli uy-joy quriladi. Hozir bu manzilda qurilish ishlari jadal davom etib, ko'p qavatli turar joy va maishiy binolar qad rostlanmoqda.

— Shu kungacha 13 ta uy-joy, markazlashgan issiqlik ta'minoti binosi, 990 o'rinni o'rinli maktab, bolalar bog'chasi foydalanishga topshirildi, — deydi tuman bosh arxitektori Javlonbek Mamajonov. — Qurilayotgan binolar tomiga muqobil energiya bilan ishlovchi suv istish kollektorlari, quyosh panellari o'rnatilmoqda. Bu issiq suvdan 25 foiz, elektr energiyasidan 10-15 foiz quvvatni tejash imkoniyatini beradi. Binolarning tashqi tomoni bazalt bilan qoplab, sendvich paneldan tayyorlangan eshik-romlar o'rnatilyapti. Ular xonadonga issiq-sovuqni o'tkazmaydi.

Elektr, suv, gaz, kanalizatsiyalar uchun yangi tarmoqlar tortildi. Bundan tashqari, “Mening

bog'im” ijtimoiy loyihasi asosida yashil hududlar barpo etish ishlari ham bajarilyapti. Tashabbuskor tadbirkorlar yoshlar kovorking markazi, klinika, restorant, tantanalarda saroyi singari qiymati 21 milliard so'm bo'lgan savdo va xizmat ko'rsatish inshootlarini qura boshlagan. Bundan tashqari, musiqali favvara, sport maydonchalari, yozgi ayvonlar, piyodalar yo'lakchasi hudud me'moriy qiyofasini butkul o'zgartirib yubormoqda. Massiv obodligiga hissa qo'shadigan sug'orish tizimi, quyosh panelli yoritish ustunlari, o'rindiqlar, chiqindi qutilari o'rnatish, yo'l va avtoturarog'lar qurilishi ham e'tibor markazida.

“Soyyoni” mahalla fuqarolar yig'ining “Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahalla” maqomi berildi. Yangi loyiha qishloq me'moriy qiyofasi, odamlar hayot tarziga yangicha ruh, ko'tarinkilik olib kirdi. Ushbu manzilda bo'lib, oddiy odamlar bilan suhbatlashdiki. Bunyodkorlik yo'lidagi amaliy ish bilan tanishdiki.

Mahalla fuqarolar yig'ida 4000 ga yaqin odam yashaydi. Yillar davomida e'tibordan chetda qolgan hududda o'ziga yarasha masalalar bor,

Yo'Ichiroq

albatta. Hozirgacha mahallaning infratuzilmasi, aholi yashash tarzini yaxshilashga doir ehtiyojlari o'rganildi. Mahallani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun loyiha ishlab chiqilib, dastur asosida ishlar boshlandi. Aholi va transport harakatiga xalal berib kelgan binolar, qo'lbola savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari o'miga zamonaviy me'moriy yechimga ega bino va inshootlar qurilmog'da. O'tgan asrning 70-yillarida qurilgan ko'prik ta'mirga muhtoj. Loyihaga ko'ra, soyning suv o'zami qing'og'ini mustahkamlash va 400 metrligi sog'lomlashtirish yo'lagini qurish ishlari boshlandi.

— Mahallamiz uchun ajratilgan mablag' aholi bandligini ta'minlab, kambag'allikdan chiqarish va zarur sharoit yaratish uchun katta imkoniyat, — deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Hamidilla Musaliyev. — Loyiha doirasida 40 ta tadbirkorlik obyekti ishga tushirilib, 400 dan ortiq yangi ish o'ri ochiladi. Asosiy e'tibor kichik ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish, savdo va xizmat ko'rsatish hajmini ko'paytirishga qaratilgan. Jumladan, turizm, tomorqachilik va chorvachilik rivojlantiriladi. Natijada kambag'allik 2,8, ishsizlik darajasi 3,4 foizga tushadi. Bundan tashqari, zamonaviy tibbiyot muassasasi, sog'lomlashtirish yo'lakchalari qurilyapti. Markaziy ko'chalarga o'rindiqlar, to'siqlar o'rnatish, yo'llarni asfaltlash, piyodalar yo'laklari qurish, ariqlarga lotok yo'tqizish, yo'l yoqalarida yashil maydon tashkil etish boshlangan. Temur Malik ko'chasidagi xonadonlarga ichimlik suv, elektr tarmoqlari tortish, Limonchilar ko'chasidagi eskirgan suv inshootini yangilash nazarda tutilgan. Elektr sarfi yuqori uy-joylarga tejamonkorlik uchun muqobil energetika qurollari o'rnatilyapti.

Ilgari odamlar tibbiy ko'rikdan o'tish va davolanish uchun tuman markaziga yoki Farg'ona va Marg'ilon shaharlariga borishga majbur edi.



Endi bunga zarurat qolmadi. Mahallada “Asl shifo” xususiy klinikasi ish boshladi. Unda aholi salomatligini nazorat qilish, davolash bilan bog'liq barcha sharoit yaratilgan.

“Yuqori” mahalla fuqarolar yig'inidagi obida — xalq tilida Qorasqoq ota deb yuritiladigan ziyoratgoh aholi uchun muhim ma'naviy maskanlardir. Odamlar bu yerga ziyorat va dam olish uchun keladi. Ziyoratgoh XVIII-XIX asrlarga taalluqli yodgorliklar sirasiga kiradi. Ushbu maskanda ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida 3,8 milliard so'm yo'naltirildi. Bu pul evaziga yo'l quriladi. Atrof obod qilinib, ariqlarga lotok yo'tqiziladi. Elektr tarmoqlari tortilib, ko'cha chiroqlari o'rnatiladi. Mevali va manzarali daraxtlar ekilib, o'rindiqlar o'rnatiladi. Muhimi, xostel, muzey tashkil etiladi. Bu yerda 25 ta savdo va xizmat ko'rsatish tarmog'i qurilishi hisobiga 50 dan ortiq yangi ish o'ri ochiladi.

— Bolalik xotiralarimiz bilan bog'liq qadim maskanda boshlangan bunyodkorlik qalbmizga quvonch, shukronalik tuyg'usini olib kirdi, — deydi mehnat faxriysi Muhammadrasul Kimsanboyev. — So'lim maskanga kelib ziyorat qilishni, dam olishni istaydiganlar ko'p. Ammo qo'lbola usulda qurilgan uy-joy, savdo va xizmat ko'rsatish tarmoqlari noqulaylik tug'dirardi. Endi hammasi o'zgarayapti. “Mahalla serinish” kompaniyasi tashkil etilib, zamonaviy ko'rinish, qulayliklar mujassam bo'lgan savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari qurilmog'da. Bular qadim maskanga yangicha ko'rk, tarovat bag'ishladi.

“Qoratepa” mahalla fuqarolar yig'ini Yozyovon tumanida aholi zich joylashgan hududlar sirasiga kiradi. Biroq almisogdan qolgan savdo do'konlari, ta'mirlalab yo'l va boshqa infratuzilma tarmoqlari ko'hna qishloq hayot tarzidagi o'ziga xos muammolardan biri edi. Bu yerda “Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahalla” konsepsiyasi doirasida qamrab olingan masalalar keng va rang-baranglik bilan e'tiborni tortadi.

— Aholining tadbirkorlik loyihalarini qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan “Taraqqiyot va yetakchilik” maskaniga aylantirish bo'yicha loyihalar ishlab chiqildi, — deydi tuman hokimining birinchi o'rinbosari Akramjon Eraliyev. — Loyihada savdo, kichik ishlab chiqarish obyektlari, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish va mikrosoat markazlarini tashkil etish imkoniyatlarini hisobga olingan. Undan ko'zlangan asosiy maqsad — tanlangan mahallalar va ularga qo'shni hududlar aholisini ish bilan ta'minlash, kambag'allikni kamaytirish va mavjud imkoniyatlaridan foydalanib, tadbirkorlikni rivojlantirish.

Bunyodkorlik ishlari tumandagi har bir mahalla, oila hayotida o'z aksini topmog'da. Ha, islohotlar Yozyovon kabi olis tumanlardagi mahallalarning ham obodligi va iqtisodiy-ijtimoiy yuksalishiga xizmat qilmoqda.

Rasuljon KAMOLOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

Sharh

Iqtisodiy taraqqiyot tarixiga chuqurroq nazar tashlasak, bir muhim qonuniyat ko'zga tashlanadi: sanoat sivilizatsiyasining yangi bosqichlari aksariyat hollarda kimyo texnologiyalarida yuz bergan tub o'zgarishlar bilan bog'liq. XIX asrda sintetik moddalar va sun'iy bo'yoqlar ishlab chiqarish texnologiyalari paydo bo'lishi Yevropa sanoat inqilobining ikkinchi bosqichini tezlashtirgan bo'lsa, XX asrda neft-kimyo sanoatining jadal rivoji plastmassa, polimer va sun'iy materiallar davrini boshlab berdi. XXI asrga kelib esa nanotexnologiyalar, kompozit materiallar va yuqori funksional kimyoviy birikmalar ishlab chiqarish sohasidagi yutuqlar butun dunyo iqtisodiyotining texnologik manzarasini tubdan o'zgartirmoqda.



# KIMYO SANOATI: IQTISODIY O'SISHNING STRATEGIK DRAYVERI

Darhaqiqat, bugun kimyo sanoati oddiy sanoat tarmoqlaridan biri sifatida emas, balki deyarli barcha sohani birlashtirib turuvchi strategik texnologik asosda namoyon bo'lmoqda. Avtomobilsozlikdagi yengil va mustahkam polimerlar, aviatsiya sanoatida qo'llanayotgan kompozit materiallar, farmatsevtikadagi yuqori samarali dori-darmonlar, agrosanoat majmuasida ishlatilayotgan mineral o'g'itlar va biokimyoviy vositalar — bularning barchasi kimyo sanoati taraqqiyotining bevosita mahsulidir. Shu bois, yetakchi davlatlar kimyo sanoatini industrial rivojlanishning muhim tayanchi, iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan strategik drayver sifatida ko'rmoqda.

O'zbekiston ham bu global tendensiyalardan chetda emas. Mamlakatimizda sanoatni modernizatsiya qilish, xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu ma'noda, yaqinda davlatimiz rahbarining kimyo sanoatidagi yirik investitsiya loyihalari bo'yicha taqdimot bilan tanishishi hamda tarmoqni "maqsad — harakat — natija" tamoyili asosida yangi strategik rejalashtirish tizimiga o'tkazish zarurligini ta'kidlagani ayni paytda juda muhim siyosiy-iqtisodiy signal sifatida qabul qilinishi lozim.

Mutaxassis nuqtayi nazaridan qaraganda, bunday yondashuv tasodifiy emas. Chunki amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga asosiy to'siq resurslar yetishmasligi emas, balki aniq strategik maqsadlar, samarali boshqaruv mexanizmlari va zamonaviy menejment tamoyillarining yetarlicha shakllanmagandir. Shu bois, kimyo sanoatida strategik rejalashtirish, investitsiya loyihalarni tizimli boshqarish va texnologik modernizatsiyani uyg'unlashtirish masalasi dolzarb.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur taqdimotni mamlakat kimyo sanoati rivojida yangi institutsional bosqichni boshlab beradigan muhim qadam sifatida baholash mumkin. Agar belgilangan vazifalar izchil amalga oshirilsa, kimyo sanoati nafaqat iqtisodiyotning muhim tarmog'i, balki mamlakatimizning yangi industrial taraqqiyot strategiyasidagi hal qiluvchi drayverlardan biriga aylanadi. Zero, sanoatning mazkur yo'nalishi iqtisodiy o'sish sur'atini ta'minlash barobarida qishloq xo'jaligi, energetika, qurilish va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish sohalarini xomashyo va tayyor mahsulotlar bilan ta'minlashda ham hal qiluvchi o'rin tutadi.

Joriy yil uchun belgilangan vazifalar ham aynan shu strategik maqsadlarni ko'zda tutadi. Xususan, kimyo sanoati mahsulotlari eksporti qiymatini 720 million dollarga, azotli o'g'itlar ishlab chiqarish hajmini 1 million 120 ming tonna, fosforli o'g'itlar ishlab chiqarishni 135 ming tonna, kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarishni esa 222 ming tonnaga yetkazish vazifasi rejalashtirilgan.

Bir qarashda bu raqamlar oddiy statistik ko'rsatkichlardek tuyulishi mumkin, ammo ular ortida chuqur iqtisodiy mantiq va uzoq muddatli strategik maqsadlar mujassam. Chunki mineral o'g'itlar ishlab chiqarish hajmi qishloq xo'jaligi mahsuldorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar sohada yuqori hosildorlikni ta'minlash, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni barqaror oshirish va eksportbov qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushini ko'paytirish uchun mineral o'g'itlar bilan ta'minlanilganlik darajasi hal qiluvchi omillardir. Shu ma'noda, kimyo sanoati rivoji faqat sanoat siyosati doirasidagi vazifa emas, balki mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi va agrar barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladigan strategik yo'nalishdir. Yana bir muhim jihat: joriy yilda kimyo sanoatida 9,5 milliard dollarlik 133 ta investitsiya loyihasi amalga oshirish rejalashtirilgan. Ushbu loyihalar doirasida 2,5 milliard dollar investitsiya jalb

qilish ko'zda tutilmoqda. Bu esa tarmoqni modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan keng ko'lami iqtisodiy dastur amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Mazkur investitsiya loyihalarning ahamiyati faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan cheklanib qolmaydi. Eng muhimi, ular tarmoqning texnologik tuzilmasini tubdan o'zgartirishga xizmat qiladi. Chunki rejalashtirilgan loyihalarning katta qismi yangi texnologik liniyalarni joriy etish, mavjud ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilish, shuningdek, yuqori qo'shilgan qiymatga ega zamonaviy kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga qaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, yurtimiz kimyo sanoatini oddiy xomashyo yoki yarim tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan tarmoqdan innovatsion va texnologik jihatdan rivojlangan industrial sektorga aylantirish yo'lida muhim qadam bo'ladi.

Sanoat muhandisligi nuqtayi nazaridan qaraganda, yirik investitsiya loyihalarning muvaffaqiyati, avvalo, uchta muhim omilga bog'liq. Birinchisi, aniq va ilmiy asoslangan texnologik loyihalash. Bu bosqichda ishlab chiqarish texnologiyasi, quvvatlar, resurslar va bozor talablari puxta tahlil qilinishi zarur. Ikkinchisi, samarali ta'minot zanjiri. Ya'ni xomashyo, uskunalar, logistika va xizmat ko'rsatish jabhasi barqaror va uzluksiz ishlashi ta'minlanishi kerak. Uchinchisi zamonaviy raqamli loyiha boshqaruvi tizimlarini joriy etishdir. Bu esa investitsiya jarayonini real vaqt rejimida kuzatish, xarajatlarni nazorat qilish va muddatlarini aniq rejalashtirish imkonini beradi.



Agar ushbu omillardan biri yetarli darajada ishlamasa, hatto katta moliyaviy resurslar jalb etilgan taqdirda ham kutilgan natijaga erishish mushkul. Shu bois, kimyo sanoatidagi investitsiya loyihalari samarali boshqarish, aniq muddat va iqtisodiy samaradorlik asosida amalga oshirish bugun eng muhim vazifalardan.

Kimyo sanoatining barqaror va raqobatbardosh rivoji, avvalo, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion texnologiyalar bilan uzviy bog'liq. Zero, zamonaviy kimyo sanoati faqat ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish bilan cheklanmaydi. U yangi moddalar, ilg'or materiallar va yuqori texnologiyali mahsulotlarni yaratishga qaratilgan ilmiy izlanishlar bilan birga rivojlanadi. Shu bois, bu tarmoqda ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlik ganchalik mustahkam bo'lsa, sanoatning innovatsion salohiyati ham shunchalik yuqori bo'ladi.



Taqdimotda Janubiy Koreyaning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlikda kimyo-texnologiya innovatsiya markazini tashkil etish reja ma'lum qilingani alohida ahamiyatga ega. Mazkur markaz zamonaviy ilmiy infratuzilmani shakllantirish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni sanoatga joriy etish bo'yicha muhim platformaga aylinishi kutilmoqda. Eng muhimi, ushbu markaz faqat laboratoriya tadqiqotlari bilan cheklanib qolmay, ilmiy g'oyalarni amaliyotga joriy etish, ya'ni ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani ta'minlashga xizmat qiladi.

Rejaga ko'ra, mazkur innovatsiya markazi gaz va ko'mir kimyosi, katalizatorlar va sorbentlar, shuningdek, nano va kompozit materiallar kabi

qadam bo'lishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizning mintaqada ilmiy-texnologik markaz sifatidagi mavqeini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Kimyo sanoatini zamonaviy asosda rivojlantirishda ishlab chiqarish jarayonini raqamlashtirish va boshqaruv tizimlarini takomillashtirish masalasi ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bugun sanoat samaradorligini ta'minlash faqat yangi quvvatlar qurish yoki texnologik modernizatsiya bilan cheklanib qolmaydi. U, avvalo, ishlab chiqarish, moliya, logistika va ta'minot jarayonini yagona raqamli boshqaruv tizimi asosida muvofiqlashtirishni talab etadi.

Shu nuqtayi nazardan, "O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tizimida ERP (Enterprise Resource Planning) platformasining joriy etilishi muhim institutsional qadam sifatida baholalanmoqda. Ushbu tizim doirasida 16 ta axborot tizimi yagona raqamli platformaga birlashtirilgan. Bu esa tarqatib kompaniyalar faoliyatini kompleks boshqarish, resurslardan samarali foydalanish va qaror qabul qilish jarayonini tizimli ravishda muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Raqamli transformatsiya jarayoni bu bilan cheklanib qolmaydi. Yaqin kelajakda tarmoq faoliyatining muhim yo'nalishlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish rejalashtirilmoqda. Xususan, mineral o'g'itlarga talabni ilmiy asosda prognozlash, moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish va ishlab chiqarish samaradorligini baholash, shuningdek, ta'minot zanjirini boshqarish kabi murakkab jarayonlarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish ko'zda tutilgan.

Bunday yondashuv sanoat boshqaruvi mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi. Chunki zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, bozor konyunkturasidagi o'zgarishlarni prognozlash va strategik qarorlarni ilmiy asosda qabul qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa sanoat boshqaruvida data-driven management, ya'ni ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tamoyilini shakllantirishga xizmat qiladi.


Kimyo sanoati rivojiga bag'ishlangan mazkur taqdimotni tahlil qilar ekanmiz, bir muhim xulosaga kelish mumkin: O'zbekiston sanoatida yangi industrial bosqich shakllanish arafasida turibdi. Bu bosqichning mohiyati shundaki, mamlakatimiz iqtisodiyoti tabiiy resurslarni oddiy xomashyo sifatida eksport qilish modelidan bosqichma-bosqich voz kechib, ularni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga asoslangan zamonaviy industrial iqtisodiyotga o'tmoqda.

Kimyo sanoatidagi bu o'zgarishlar faqat yangi zavod va ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish bilan cheklanmasligi kerak. U, eng avvalo, ilm-fan, muhandislik tafakkuri va innovatsion yondashuvlarga tayangan yangi sanoat madaniyatini shakllantirishni talab qiladi. Chunki zamonaviy sanoat taraqqiyotining asosiy manbai — texnologiyalar, bilim va inson kapitali.

Agar mamlakatimizda investitsiya, ilm-fan, texnologiya va kadrlar salohiyati o'zaro uyg'un rivojlansa, kimyo sanoati milliy iqtisodiyotning muhim tarmog'i bo'lish barobarida O'zbekistonning yangi industrial taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy drayverlardan biriga aylanadi.

Shunda O'zbekiston nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Yevrosiyo makonida ham zamonaviy kimyo sanoati va innovatsion texnologiyalar rivojlangan yirik industrial markazlardan biri sifatida mustahkam o'rin egallashi shubhasiz.

**Sherzod JALILOV,**  
iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor



Suv va hayot

# TABIAT MUAMMOLARGA E'TIBORSIZLIKNI KECHIRMAYDI

Suv va hayot mazmun-mohiyatan olganda bitta tushunchani anglatadi. U barcha tirik mavjudotning yashashi, umr ko'rishi uchun zarur eng birinchi darajali manba. Yer sayyorasida hayotning paydo bo'lishida ham bosh omil suv bo'lganini yaxshi bilamiz.

doirasida hal qilib bo'lmagani hamma anglab, davlatlar hamjihatlikda, hamkorlikda kutilgan maqsadga erishish mumkin degan mantiq bilan harakatlanayotir.

## Tashabbus va xalqaro e'tirof

Prezidentimiz Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida suv xavfsizligi masalasini strategik ustuvor yo'nalish sifatida belgilab, 2026-2036-yillarni "Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo'yicha amaliy harakatlar o'n yilligi" deb e'lon qilish tashabbusini ilgari surdi. Bu ezgu tashabbusga hamohang tarzda bo'lib o'tgan konferensiyada O'zbekistonning yangi Suv kodeksi taqdim etildi. Mazkur huquqiy hujjatda mamlakatimizda suvdan oqilona foydalanish, sohani tartibga solish, muhofaza qilish, yer usti va yer osti suvlarini o'zaro bog'liq holda boshqarish oid masalalar majmuaviy holatda yoritib berilgan. Bu hujjatni chet ellik ekspertlar "tarixiy qadam" sifatida baholagani ham OAV va ijtimoiy tarmoqlarda qayd etildi.

Odatda mas'ullar hisobotiga ko'ra, tajribali ekspertlar bahosi xolisroqdir. Shu ma'noda, tadbirda ishtirok etgan hamkor mutaxassis — Osiyo taraqqiyot bankining Loyihalarni boshqarish bo'limi rahbari Januar Laude fikrlarini keltirib o'tishni jolib deb bildik. U Markaziy Osiyoda suv tanqisligi muammosiga strategik yondashuv, yetakchilik va hamkorlik zarurligini aytib, bunday dedi:

— Osiyo taraqqiyot banki O'zbekiston hukumati va Suv xo'jaligi vazirligi bilan suv sektorini zamonaviy, samarali va iqlimga chidamli tizimga aylantirish yo'lida uzoq yillik loyihalar va dasturlarda, jumladan, yangi Suv kodeksini tayyorlashda faol ishtirok etdi. Ushbu hujjatlar suv resurslarini integratsiyalashgan boshqarish, shaffof taqsimot, raqamlashtirish va barqarorlik prinsiplari asosida tizimni tubdan yangilashga zamin yaratdi. Yangi kodeks institutsional vakolatlarini aniq belgilab, suv foydalanuvchilari ishtirokini kengaytirdi va ekologik hamda iqtisodiy tamoyillarni

## Sabablar

Sanoatning rivojlanishi, atmosfera to'xtovsiz va haddan ziyod miqdorda issiqxona gazlari chiqarilayotgani iqlim o'zgarishini keltirib chiqardi. Bu esa, o'z navbatida, barcha sohalarda, ayniqsa, qishloq xo'jaligi, sanoatda iste'molini



kuchaytirgan. Ayni paytda dunyo aholisi soni 8 milliard 250 milliondan oshib ketgan.

Suv resurslarining kamayishi tabiiy ravishda hosildorlik tushib ketishi, oziq-ovqat mahsulotlari narxining oshishi hamda taqchilikka sabab bo'ladi. Xullas, e'tibor berilsa, bular barchasi o'zaro bog'liq masalalar. Buning ustiga suvdan samarasiz foydalanish, yer osti va yer usti resurslarining inson omili tomonidan ifloslanishi muammoni battar chuqurlashtirmoqda.

Hisob-kitoblarga ko'ra, oildada bir kishi har kuni yuz-ko'1 yuvishga o'rtacha 8 litr, jo' m'rakni ochib qo'yib tish tozalashga 6-8 litr, yuvinishga bir daqiqada 15-20 litr, vannada cho'milishga 150 litr suv sarflaydi. Endi raqamlarni oila a'zolari soniga, undan so'ng 365 kunga ko'paytirib ko'ring. Yurtimizdagi xonadonlar va aholi sonini ham esdan chiqarmang. Ana shunda go'yo arzimaddek ko'ringan muammo qay darajada ulkan xavotirni, aniqrog'i, suv isrofgarchiligini keltirib chiqarayotganini tasavvur etish qiyin emas.

## Qanday chora-tadbirlar ko'rilyotir?

Dunyo hamjamiyati suvni asrab-avaylash uchun texnologik, infratuzilmaviy va boshqaruv choralarini yordamida kurashmoqda. Jumladan, gidrotexnik inshootlar va tomchilatib sug'orish qurilmalari tabiiy etilyapti, qishloq xo'jaligida suvdan samarali foydalanishning ilg'or usullari keng ko'lamda joriy etilmog'da. Suv resurslarini mahalliy va xalqaro miqyosda boshqarish sifatini oshirishga harakat qilyapti. Eng muhimi, kun tartibiga chiqqan bu "qaynoq" masalani bir mamlakat yoki bir mintaqada

boshqaruvga integratsiya qildi. OTB kelgusida ham vazirlik bilan yaqin hamkorlikni davom ettirib, 2050-yilgacha mo'ljallangan suv sektorini rivojlantirish strategiyasi va milliy suv xavfsizligi dasturini ishlab chiqishda amaliy yordam beradi. O'zbekiston hukumati yetakchiligi va olib borayotgan islohotlarini yuqori baholaymiz. OTB esa bu boradagi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi.

Suv tanqisligi muammosi ayrim mamlakatlar emas, butun dunyo aholisiga xavf solayotgani aniq-ravshan ko'rinib qoldi. Bu mavzuda gapirganda ba'zi ko'llar qurib qolayotgani, ayrimlari qurg'oqchilik va ifloslanish xavfi ostida ekani haqida tashvishli ma'lumotga tez-tez ko'zimiz tushadi. Dunyo bo'yicha bunday o'nglanmas holatga tushgan jami irmoqlar, anhoru bu loqlarni hisoblab chiqish mushkul ekanini ta'kidlamog'da mutaxassislar.

Albatta, dunyo hamjamiyati bunday salbiy o'zgarishlarning oldini olish uchun birgalikda turli loyihalarni amalga oshirishga kirishgan. Tabiatni asrash, muhofaza qilish boschida turli darajada imkoniyatga ega mamlakatlar tobora jipslashayotir. Mavjud texnologiya va ilm-fan yutuqlari, ilmiy tadqiqot xulosalari ushbu muammoni hal etishga yo'naltirilayotgani ham ko'ngilga qisman taskin beradi. Ammo bu masalani barchamizning burchimiz sifatida qabul qilar ekanmiz, uni keyingi avlodlarga qay darajada yetkazib bera olyapmiz degan savol tug'iladi. Axir suv bilan bog'liq yuksak qadriyatlar va qarashlarimiz susayib ketganini ham tan olish kerak. Kelajakda shunday davom etaversa, yana qanday og'ir muammolarga duch kelamiz? Tabiat esa bu muammolarga e'tiborsizlikni kechirmaydi.

**Rustam BOYTO'RA,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri





Ilmiy-tadqiqot muassasalarida

# BIZ KOINOTDA YOLG'IZMIZMI?

## Yurtimizda astronomiya va kosmonavtika yangiliklari

Insoniyat uzoq yillardan buyon koinot sirlarini tadqiq etishga intilib keladi. Yulduzlar, sayyoralar, asteroidlar va shunga o'xshash samo jismlaridan iborat uchun maydon hamisha odamlarni hayratga solgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya institutida sayyoralar, kometalar, yulduzlar, galaktikalar kabi osmon jismlarini o'rganish bilan birga xalq xo'jaligining ko'plab tarmoqlari uchun amaliy tadqiqotlar ham o'tkaziladi. Aholini aniq vaqtdan xabardor qilish, geografik koordinatalarni aniqlash va o'zgarishini tekshirish, Yerning sun'iy yo'ldoshlarini kuzatish va hatto gravimetrik kuzatuvlar asosida qazilma boyliklarni topish shular jumlasidan.



O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, Astronomiya instituti rahbari Shuhrat EGAMBERDIYEV bilan suhbatimiz mamlakatimizda birinchi kosmonavtning uchirilishi, kosmik tadqiqotlar o'tkazish jarayonidagi yangiliklar hamda astronomiya sohasiga oid boshqa masalalar xususida bo'ldi.

— Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga navbatdagi Murojaatnomasida mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bor kosmik sohada sun'iy yo'ldosh va mamlakatimiz fuqarosi bo'lgan birinchi o'zbek kosmonavtini fazoga uchirish bo'yicha sa'y-harakatlar boshlangani ma'lum qilindi. Bu ishlarda siz rahbarlik qilayotgan ilmiy institutning hissasi qanday bo'ladi?

— Jahon kosmos agentliklari, NASA va Roskosmos kosmos texnologiyalarini rivojlantirish, aloqa va Yerni kuzatish uchun sun'iy yo'ldoshlarni uchirish hamda xalqaro kosmik stansiyaga fazogirlarni yuborish vazifalarini bajaradi. "O'zbekkosmos" agentligi kosmik faoliyatni rivojlantirish, kosmik tadqiqotlar va zamonaviy kosmik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha vakolatli davlat organidir. Kosmik tadqiqotlar, sun'iy yo'ldosh texnologiyalari, yerni masofadan zondlash, kosmik monitoring hamda geoaxborot texnologiyalarini rivojlantirish agentlik faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan. Bu borada agentlik tomonidan sezilarli ishlar bajarilayapti. Navbatdagi vazifa — o'zbekistonlik fazogirning kosmosga uchirilishi, kosmosda bajarib keladigan tajribalarning ilmiy ahamiyatidan qat'i nazar, yurtimiz nufuzining xalqaro miqyosda keskin oshishiga hissa qo'shishi shubhasiz. Sun'iy yo'ldoshga kelsak, birinchi navbatda, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini rivojlantirish va yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilishi kerak. Aloqa, qishloq xo'jaligi, jumladan, paxta va bug'doy yetishtirish jarayoni, muhim inshootlarning holatini monitoring qilib borish kabi yo'nalishlarda qo'l keladi.

Astronomiya institutining Kosmik geodeziya va geodinamika laboratoriyasi olimlari geografik koordinatalar o'zgarishi, Yerning notekis aylanishi va unga ta'sir etuvchi omillar (zilzila, ququqlik gidrologiyasi, Oy va Quyoshning gravitatsion ta'siri, Yerning ichki dinamikasi, muzliklar monitoringi va hokazo)ni ochiq ma'lumot bazalaridan olingan kosmosasvirlar tahliliga asoslangan usullar yordamida o'rganadi.

Milliy sun'iy yo'ldoshni uchirish bizga mustaqil va muntazam ma'lumot oqimini beradi. Bu deformatsiya va xavfli zonalarni tez-tez kuzatish (qayta-qayta o'lchash), ma'lumotlar tashqi manbalarga kamroq bog'liq bo'lish va eng muhimi, o'z mutaxassislarimizni tayyorlash

orqali ilmiy tadqiqot salohiyatini oshirish imkonini yaratadi.

Ko'pincha biz — astronomlardan "Faoliyatigizning bugun nechog'liq foydasi yoki ahamiyati bor?" deb so'rashadi. Avtomobil va yurganimizda navigatorlardan foydalanamiz. "Navigator biz qaysi ko'chadan ketayotganimizni, qaysi chorrahani kesib o'tayotganimizni qayerdan biladi?" degan savollar bilan ham yuzma-yuz kelamiz. Ko'pchilik "Bu ma'lumot kompyuterga kiritilgan!" deb javob beradi. To'g'ri, biz ketayotgan shaharning xaritasi kompyuter (uyali telefonimiz u bilan bog'lana oladi) xotirasida bo'ladi. Lekin bizning joyimizni bilish uchun sayyoramiz atrofida uchib yurgan sun'iy yo'ldoshning orbitali bir necha santimetr aniqlikda o'lchangan bo'lishi kerak. Buning uchun GPS, GLONASS kabi kosmik navigatsiya tizimlarining Yer yuzasidagi tayanch stansiyalari bo'lishi lozim. O'zbekiston hududida ana shunday tayanch stansiyalar Astronomiya institutining Toshkent va Kitob shahridagi maskanlarida o'rnatilgan va institut xodimlari tomonidan uzluksiz ishlatiladi. Bordi-yu, ular ishlamay qolsa, taksi xizmati sizni aniq manzilgizga yetkazolmay qoladi.

— Yaqinda ommaviy axborot vositalarida Astronomiya instituti olimlari NASA mukofoti bilan taqdirlangani haqida xabarlar keng tarqaldi. Shu haqda batafsil ma'lumot bersangiz.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti olimlari — Otabek Burhonov va Kamoliddin Ergashev NASAning "Group Achievement Award" mukofoti bilan taqdirlangani haqida xushxabar oldik. Bu mukofot biror muhim kosmik loyiha xalqaro astronomlar guruhi tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilgandan so'ng jamoa a'zolariga beriladi va u muvaffaqiyatga hissa qo'shgan astronomlar faoliyatining yuksak e'tirofidir.

Endi bu loyihaning tafsilotlari haqida to'xtalask. Hozir Quyosh tizimida 40 mingga yaqin asteroid (o'lchami bir necha kilometr dan bir necha metrgacha bo'lgan tosh jismlar) sayyoramizga yaqin orbitalarda harakatlanadi va Yerga yaqinlashuvchi asteroidlar guruhi tashkil etadi. Ular orasida 2500 dan ortig'ining to'qnashish ehtimoli katta va ular potensial xavfli asteroidlar sifatida tasniflanadi.

To'qnashuv sodir bo'lganda asteroidlarning ta'siri regional talafotdan global falokatgacha olib kelishi mumkinligi tufayli ularni monitoring qilish va xavf tug'ilganda odamlarni ko'chirish kabi choralarini ko'rish dolzarb ahamiyatga ega. Shu sababli ham dunyo bo'ylab bir qancha mamlakatlar va markazlarda muayyan tashkilot hamda maxsus tadqiqot guruhlari tashkil etilgan.

Bu jabhadagi faoliyatda Yaponiya aerokosmik tadqiqotlar agentligi (JAXA)ning Hayabusa missiyalari ham alohida e'tirofga

sazovor. Ushbu missiyalar Yerga yaqin asteroidlarga kosmik apparatlar uchirish va asteroid moddasidan namuna olib kelish kabi murakkab ilmiy texnologik loyihadir. Mazkur missiyalarning yerdagi teleskoplar orqali optik kuzatish bilan bog'liq tadqiqotlarida O'zbekiston Astronomiya institutining ilmiy jamoasi Maydanak baland tog' observatoriyasi teleskoplari yordamida qatnashgan, jamoaning kosmik missiyadagi faoliyati Yaponiya aerokosmik tadqiqotlar agentligi tomonidan alohida e'tirof etilgan va ikki marta maxsus tashakkurnoma berilgan. Bundan tashqari, Quyosh tizimida kashf etilgan asteroidlardan biriga yaponiyalik astronom hamkorlar taklifi bilan Garvarddagi kichik sayyoralar markazi tomonidan "Maydanak" nomining berilishi ham bu e'tirofning alohida tasdig'idir.

So'nggi yillarda jahondagi yetakchi kosmik agentliklari yerdagi global hayotga xavf soluvchi asteroidlarning Yer bilan to'qnashishini uzil-kesil hal qilishning eng samarali yo'li sifatida xavfli obyektlarning orbitasi va to'qnashish trayektoriyasini o'zgartirish ustida izlanishlar olib bormoqda. Bugun xavfli asteroidlar orbitasini o'zgartirish yoki ularni portlatib sochib yuborish bilan bog'liq qator takliflar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, texnologik jihatdan bu juda murakkab masala. Shunday yo'nalishdagi tadbirlardan biri zarba berish orqali asteroidning orbitasini o'zgartirishdir. Sayyoraviy mudofaa maqsadlarida asteroidga zarba berish tajribasi ilk marta 2022-yil sentyabrda o'tkazildi. Bunda NASAning DART kosmik kemasi Didimos nomli asteroidning Dimorfos deb ataladigan yo'ldoshi bilan to'qnashirildi. Tajribadan maqsad zarba berish usuli orqali asteroid orbitasining o'zgarishini aniqlash va kelajakda bunday tajribani boshqa asteroidlar xavfini bartaraf etishda qo'llash edi. Kosmik kema asteroidning o'zi bilan emas, balki uning yo'ldoshi bilan to'qnashirishidan maqsad esa asteroid yo'ldoshning kichik orbitasidagi o'zgarishlarni yerdan turib aniqlash osong'idir. Bundan tashqari, zarba ta'siri qanday bo'lishi

viloyati Qamashi tumanida — dengiz sathidan 2700 metr balandlikda joylashgan Maydanak osmon jismlarini kuzatish sharoiti bo'yicha jahondagi nufuzli observatoriyalardan. Ulkan Yevrosiyo mintaqasi joylashgan Yer sharining sharqiy yarimsharida astroikli bo'yicha unga teng keladigan joy yo'q!

Shuning uchun Maydanak observatoriyasi ko'plab nufuzli xalqaro astronomik kuzatuvlarni



talab etadigan dasturlar a'zosisidir. Buning yana bir sababi u juda qulay geografik hududda joylashganidir. Masalan, biz Maydanakda biror-bir osmon jismini kuzatayotganimizda, Yerning qarama-qarshi tomonida — Amerika qit'asida kunduz, Xitoyda tong ota boshlagan, Yevropada esa hali kech kirmagan bo'ladi. Shuning uchun bu rasadxona eng qulay joy. Ya'ni Maydanak tunida kuzatuv olib borilganda Yer sharining boshqa hududlarida buning imkon bo'lmaydi. Shuning uchun xalqaro dasturlarda Maydanakning bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

aniq kuzatilishi e'tiborga molik. Osmoaning Toshkent va Kitob observatoriyalarida olingan fotosvirlarini raqamlashtirish natijasida 13,5 million yulduzdan iborat katalog e'lon qilindi.

Qadimda, hatto astronomiya gurkirab rivojlangan o'rta asrlarda ham koinot deganda quyosh va sayyoralar tushunilar edi. Hozir biz osmonning bu qismini Quyosh tizimi deyimiz. Quyosh tizimida yorug'lik sekundiga 300 ming

yulduzlar va sayyoralar aniq koordinatlarini o'lchashi jahon astronomiya fani taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Uning merosi Islom sivilizatsiyasi markazi ekspozitsiyalarida keng aksini topgan.

Shu o'rinda Islom sivilizatsiyasi markazi haqida ham qisqacha to'xtalib o'tish kerak. Bugun dunyoda islomga nisbatan asosiy va adolatsiz tanqidlar kuchayib borayotgan bir paytda uning haqiqiy insonparvar va gumanistik qadriyatlarini, tinchlik, mehr-shafqat va bilim izlashga undovchi mohiyatini yanada keng targ'ib etish juda muhim. Chunki islom insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotida turli davrlarda muhim va progressiv o'rin tutgan. Ilk musulmon jamiyatida ilm-fan, ta'lim, adolat va inson qadriyatiga alohida e'tibor berilgan. Ana shu madaniy muhitda aniq fanlar, astronomiya, tibbiyot va falsafa jadal rivojlangan. Shu ma'noda, islomning zamonaviy dunyodagi o'rini chuqurroq va adolatliroq tushunishda Prezidentimiz tashabbusi bilan barpo etilgan Islom sivilizatsiyasi markazining ahamiyatini alohida ta'kidlash zarur.

Markazning Ramazon hayati hamda Navro'z bayrami arafasida ochilgani chuqur ramziy ma'noga ega. Bu yirik ilmiy-ma'rifiy majmua Markaziy Osiyo tarixiga bog'liq boy islom madaniyati va ilmiy merosini o'rganish hamda ommalashtirishga qaratilgan. Ekspozitsiya va ilmiy dasturlarda Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy va Mirzo Ulug'bek kabi buyuk bobolarimizning faoliyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Ularning tadqiqotlari, jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hisssasi keng yoritilgan.

— Insoniyat koinot sirlarini chuqurroq anglab borar ekan, o'ziga o'zi doim "Biz koinotda yolg'izmizmi?" degan savolni bergan. Lekin bu savolga hal-hanuz javob topilgani yo'q, shunday emasmi?

— Quyosh sistemasidagi sayyoralarini kosmik apparatlar yordamida o'rganish natijalari ham bu savolga jo'yali javobni taqdim eta olmadi. Marsda hayot izi topilmadi, Venera va Merkuriy yuzasi esa hayot mavjud bo'lishi uchun juda ham issiqlik qiladi. Yupiter kabi gigant sayyoralarda kimyoviy tarkibiga ko'ra hayot bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun biz Quyosh sistemasida yakkayu yagonamiz deymishimiz mumkin.

Astronomlar Quyoshning koinotda noyob yulduz emasligi, unga o'xshash yulduzlar son-sanoqsiz ekanini allaqachon aniqlagan. Shunday ekan, bu yulduzlar atrofida ham Yerga o'xshash sayyoralar harakatlanishi, ularda ongli hayot rivojlanishi uchun bizdagidek shart-sharoit bo'lishi mumkin. Boshqa yulduzlar atrofida harakatlanuvchi bunday sayyoralar ekzosayyoralar deyiladi. Ya'ni oddiy qilib aytganda, ekzosayyora Quyosh tizimidan tashqaridagi sayyora degani.

Birinchi ekzosayyorani 1995-yili Jeneva observatoriyasi astronomlari Michel Mayor va Didye Kvelos kashf etgan. Bu kashfiyoti uchun ular 2019-yili Nobel mukofoti bilan taqdirlandi. Hozir bunday sayyoralar takomillashtirilgan usullar yordamida topilyapti. NASA axborotiga ko'ra, 2025-yil dekabrda kelib, galaktikamiz — Somon yo'li atrofida 7500 ekzosayyora mavjudligi tasdiqlandi. Ular safiga qo'shilish uchun nomzodlar soni esa bundan ancha ko'p, taxminan 15 mingga.

Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra, Somon yo'li galaktikasidagi ekzosayyoralarining umumiy soni kamida 100 milliard ekanini taxmin qilimmoqda. Ular 5 dan 20 milliardgacha Yerga o'xshash, shuningdek, galaktikamizda yashash uchun yaroqli bo'lgan ekzosayyoralarining umumiy soni 300 millionga yaqin bo'lishi mumkin.

Shunday ekan, boshqa yulduzlar atrofida sayyoralar ham ongli mavjudotlar yashash ehtimoli bor. Bizga eng yaqin yulduz 4,24 yorug'lik yili masofasida joylashgan. Demak, hozirgi texnika yordamida ekzosayyoralar parvoz qilishning hech ham iloji yo'q!

Endi noma'lum uchar obyektlar haqida ham ikki og'iz to'xtalib o'tmoqchiman. Noma'lum uchar obyektlar kuzatilgani aksariyat hollarda atmosferamizdagi hodisalar, harbiy amaliyotlar va kosmik apparatlarining texnik nosozliklari, meteorologik zondlarning uchirilishi bilan izohlanadi. Ammo Yerdan tashqarida ham hayot mavjudligini to'liq istisno qilish kerak emas. Shu bilan birga, Yerga kelgan o'zga sayyoradagi aqlli hayotning to'g'ridan to'g'ri dalillari hozircha yo'q. Shu bois, ularning aqlli hayot ko'rinishi sifatida mavjudligi ehtimoli hozircha gipotetik, ammo ilmiy jihatdan asosli va keyingi tadqiqotlar uchun qiziqarli.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.



“Yulduzlar atrofida sayyoralar ham ongli mavjudotlar yashash ehtimoli bor. Bizga eng yaqin yulduz 4,24 yorug'lik yili masofasida joylashgan. Demak, hozirgi texnika yordamida ekzosayyoralar parvoz qilishning hech ham iloji yo'q!”

oldindan noma'lumligi sababli buni to'g'ridan to'g'ri xavfli asteroidning o'zida qo'llash nomaqbul bo'lar va bu hatto teskari effekt berishi ham mumkin edi.

2022-yil 26-sentyabrda DART kosmik kemasi Dimorfos bilan to'qnashirildi. Natijada uning orbital davri 33 daqiqaga qisqardi. To'qnashuvdan oldin Dimorfosning Didimos atrofida aylanish davri 11 soat 55 daqiqaga teng edi. Bu fazo eksperimenti sayyoraviy mudofaa maqsadlarida asteroidlarga zarba berish usulining samaradorligini isbotladi. To'qnashuv natijalarini qayd etish va o'zgarishlarni aniqlash uchun butun dunyodagi observatoriyalar birlashgan holda katta kuzatuv kompaniyasini tashkil qildi. Kuzatuv kompaniyasida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya institutining ilmiy jamoasi Maydanak observatoriyasi teleskoplari bilan ishtirok etadi va salmoqli kuzatuv ma'lumotlarini taqdim qildi.

Bu insoniyat tarixida birinchi marta sun'iy ravishda asteroid orbitasini o'zgartirish mumkinligining isboti bo'ldi. Ilk tajriba muvaffaqiyatli yakunlandi.

— Bugun o'zbek astronomiyasidagi eng muhim yangiliklar haqida to'xtalasangiz. Ularning dunyo ilm-fanidagi ahamiyati qay darajada?

— Astronomiya institutining barcha astronomik kuzatuvlari Maydanak observatoriyasida bajariladi. Qashqadaryo

So'nggi yillarda olimlarimiz bir necha katta kashfiyotlarga qo'l urdi. Bular orasida "Samarqand" va "Maydanak" kichik sayyora asteroidlarining ochilishi, Katta ayiq yulduz turkumida o'ta yangi yulduz chaqnashining kashf etilishi, koinotda gamma nurlarda chaqnagan va kosmik apparatlarda qayd etilgan yuzlab jarayonning optikada Maydanakdan turib

2026-yil 12-aprel, 72-son



Bugunning gapi

# SOLIQ TO'LASH — VIJDON ISHI



Zulfiya MO'MINOVA,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
madaniyat xodimi,  
"Ma'rifat" targ'ibotchilar  
jamiyati a'zosi

Soliqlar nimaga sarflanishini to'laqonli bilganimizda edi, barchamiz o'z tashabbusimiz bilan to'lagan bo'lardik. To'lamayman, menga yengillik, imtiyoz beringlar demasdik. Aksincha, nima uchun soliq to'lamayman, boshqalardan kam joyim bormi, mayib-majruhmanmi deya jar solardik. Soliq to'lay olish layoqatini bergani uchun Yaratinganga shukr aytib, ich-ichimizdan quvonardik, g'ururlanardik.

Soliqni sog'lom odamlar to'laydi. Vatani, seni sevaman, senga jonim fido deb aytish uchun ma'naviy haqqi bor odamlar to'laydi soliqni. Uni to'lash qahramonlik yoki olijanoblik emas, balki burch.

Xo'sh, soliq nima o'zi? Soliq davlat faoliyatini ta'minlash, maktablar, shifoxonalar, yo'llar va boshqa ijtimoiy infratuzilmalarni moliyalashtirish va iqtisodiyotni boshqarish uchun jismoniy hamda yuridik shaxslardan majburiy, qaytarilmaydigan tartibda undiriladigan pul mablag'i. U byudjetni shakllantiradi va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi.

Vatani qudrati, avvalo, ilmiy, ma'rifati fuqarolarga bog'liq. Xuddi koinotni quyoshsiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, jamiyatni maktabsiz, o'qituvchisiz, bilimsiz tasavvur qilish qiyin. Ilmu ma'rifat, ma'naviyat esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, maktablarda, oliy o'quv yurtlarida beriladi. Inson orzu qilishi, oldiga marallar qo'yishi, maqsadlar sari intilishi uchun, avvalo, sog'lom bo'lishi kerak. Buning uchun mamlakatda tug'uruqxonalar, shifoxonalar, poliklinikalar qurilishi, bu qutlug' dargohlarda inson

66

**Eng rivojlangan mamlakatlarda soliq to'lamagani yoki soliqdan qochgani uchun "erkatoy yulduzlar", yurti taraqqiyotida o'rni bor tadbirkorlarga jarima va jazo belgilangan. Bunga misollar ko'p. Masalan, aksariyat futbol yulduzlari, shou-biznes vakillari soliq to'lamaslik bilan bog'liq voqealar sabab javobgarlikka tortilgan.**

salomatligi uchun mas'ul malakali, tajribali tibbiyot xodimlari ishlashi lozim.

Mamlakatda sog'lom va komil insonga ehtiyoj katta. Soliqlarimiz ta'lim, ma'rifat, ma'naviyat uchun sarflanayotganini nahotki tushunmaymiz?!

Oliy o'quv yurtlari, maktablar, bog'chalar qurilishi, ularning darsliklar, o'quv jihozlar, laboratoriyalar, kutubxonalar, kompyuterlar, turli zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanishi soliq tushumlariga bog'liqligini bilamizmi?

hal etib borish bo'yicha qat'iy topshiriq berganini barchamiz yaxshi bilamiz. Xullas, mamlakatimiz yetakchisining sa'y-harakati tufayli har bir hudud ehtiyojidan kelib chiqib, yetarlicha dori-darmon, tibbiy buyumlar va test tizimlari bilan ta'minlangani, tibbiyot xodimlari moddiy rag'batlantirilgani bugun tarix sahifalaridan o'rin oldi.

Biz to'layotgan soliqning bir qismi tibbiyotga yo'naltirilganini minnatdorlik bilan qabul qilishimiz kerak emasmi?

"ixtiyoriy burch" emas, balki qat'iy ijtimoiy shartnoma.

Mashhurlik, boylik yoki ta'sir jazodan himoya qilmaydi. Eng muhimi, jazo muqarrarligida.

Xo'sh, bizda-chi? Biror marta soliq to'lamagani yoki soliqdan qochgani uchun ishbilarmon, shou-biznes vakili yoki mashhur sportchi jarimaga tortilgani haqida eshitganmisiz? Eshitmagansiz! Chunki bizda ular doimo e'zozda.

Tadbirkorlik, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, san'at, adabiyot, madaniyat rivojiga hissa qo'shganlar, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlab, nogironligi bor yurtdoshlarimizni ish bilan ta'minlaganlar uchun bosqichma-bosqich soliq imtiyozlari joriy etib kelinmoqda.

O'zbekiston bugun jahonga eshiklarini ochdi. Dunyo o'zbek bilan do'st bo'lishni istamoqda. Bekligimizni, eng avvalo, yuragimizda, vijdonimizda tiklaylik. Oldimizda turgan ulkan mas'uliyatni sharaf deya qabul qilaylik. Eng asosiysi, topgan daromadimizdan qonunda belgilangan miqdorda soliq to'lashni vijdon ishi deb bilaylik.

Tekis va ravon yo'llar — obodlik belgisi, mamlakatning qiyofasini belgilovchi omil. Uyimizga, ishga, barcha muqaddas joyga, tarixiy osori atiqalarga yo'llar olib boradi.

O'zbekistonga sarmoya kiritayotgan investorlar, avvalo, yo'llarimizga qaraydi. Yildan yilga karrasiga ko'payayotgan turizm rivojida yo'llarning o'rini boshqa biror narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, daromad yo'llardan yurib, kirib keladi. Yo'llarga qancha ko'p pul sarflasak, shuncha ko'p falokatning oldi olinadi.

Biz to'layotgan soliqning bir qismi yo'l qurilishiga ketishini nahotki tushunishni istamaymiz?

Joriy yil 6-aprel kuni Prezidentimiz soliq ma'murchiligini takomillashtirish va soliq organlari faoliyatini isloh qilishga doir taqdimot bilan tanishdi. Unda davlatimiz rahbari soliq tizimini takomillashtirish, nazoratni kuchaytirish va xulfiyona iqtisodiyot haqida o'xtalib o'tdi.

Soliq tizimidagi shaffoflik va adolat davlatimiz rahbari nazoratida turganining o'ziyoq har birimizning vijdonimizni uyg'otmog'i shart va zarur.

Eng rivojlangan mamlakatlarda soliq to'lamagani yoki soliqdan qochgani uchun "erkatoy yulduzlar", yurti taraqqiyotida o'rni bor tadbirkorlarga jarima va jazo belgilangan.

Bunga misollar ko'p. Masalan, aksariyat futbol yulduzlari, shou-biznes vakillari soliq to'lamaslik bilan bog'liq voqealar sabab javobgarlikka tortilgan.

Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda soliq



www.yuz.uz f yuz.uznews yuz\_official yuz



## QORAQALPOG'ISTONDAN BOSHLANGAN ESTAFETA

### Korazm innovatsion media markazi chorrahasida

Global axborot makonidagi shiddatli o'zgarishlar, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt rivoji, yolg'on xabarlar oqimi ko'paygani media sohasi vakillaridan mutlaqo yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Shu maqsadda mamlakatimizda yilning eng yirik va muhim ta'limiy-amaliy loyihasi — jurnalistlar, blogerlar va axborot xizmati xodimlarini yagona platformada birlashtiruvchi media haftalik ish boshladi.

O'zbekiston bo'yab harakatlanuvchi mazkur media estafetaning ilk bosqichi 30-mart kuni Qoraqalpog'istondan boshlandi. Mashg'ulotlar davomida ishtirokchilar haqqoniy keyslar asosida ishlash, xatolarni tahlil qilish, yangi yondashuvlarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Spikerlar tajribasi bilan o'rtoqlashib, zamonaviy media rivojining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar berdi.

Joriy haftada esa Xorazm viloyatidagi media vakillari uchun muhim va foydali muloqot maydoni tashkil etildi. Qoraqalpog'istonda boshlangan media haftalik bu yerda davom ettirilib, ishtirokchilarga zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalar berishga xizmat qildi.

Mazkur loyihadan asosiy maqsad — global axborot makonida raqobatbardosh, zamonaviy talab va mezonlarga javob bera oladigan kontent ishlab chiquvchilarni ko'paytirish, media bo'yicha yangi avlod professionalini shakllantirish hamda axborot sohasida sifat jihatidan yangi bosqichga chiqishdan iborat.

Media haftalik doirasidagi mashg'ulotlar mazmunan keng qamrovli bo'lib, ularda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, strategik kommunikatsiya, jamoatchilik bilan aloqalar, reputatsiya boshqaruvi, faktcheking va yolg'on xabarlariga

qarshi kurashish usullari, sun'iy intellekt asosida kontent yaratish, vizual storitelling, mobilografiya, ijtimoiy tarmoqlar algoritmi bilan ishlash kabi yo'nalishlar bo'yicha ishtirokchilarga zamonaviy bilim va tajribalar yetkazilmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha



amaliy sessiyalar media sohasida yangi yondashuvlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xorazm viloyatida o'tkazilgan media haftalikda axborot xizmati xodimlari, davlat va nodavlat telekanallar ijodkorlari, bosma va internet OAV vakillari, mahalliy blogerlar, mobilograflar, SMM mutaxassislari hamda kontent yaratishga qiziquvchi yoshlar yagona platformada jamlandi.

Haftalik yakunida o'tkazilgan media-forum esa ushbu jarayonning eng yirik nuqtasiga aylanib, 1000 dan ziyod media vakillari va yoshlarni bir maydonda birlashtirdi.

Ishirokchilar beshta asosiy yo'nalish bo'yicha o'qitildi: bosma va internet OAV vakillari raqamli kontent, sun'iy intellekt va faktchekingni o'zlashtirdi; televideniye ijodkorlari reportaj va tasvir sifatini oshirishga e'tibor qaratdi; axborot xizmati xodimlari kommunikatsiya, ochiqlik va KPI bo'yicha amaliy ko'nikmalar oldi; SMM mutaxassislari va blogerlar esa zamonaviy kontent yaratish

va auditoriya bilan ishlash usullarini o'rgandi. Media haftalik doirasida axborot sohasi vakillari uchun ikki muhim metodik nashr taqdim etildi: "Davlat organlari va OAV hamda bloger o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslari" qo'llanmasi axborot almashinuvini qonuniy va shaffof tashkil etish mexanizmlarini belgilab bersa, "Davlat idoralarning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarini verifikatsiya qilish bo'yicha yo'riqnomasi" Facebook, Instagram, Telegram, YouTube va X kabi platformalarda rasmiy belgini olish tartibini tushuntirib, raqamli makonda ishonchli axborot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xorazm viloyatida o'tkazilgan media haftalik OAV vakillarini birlashtirgan yirik media-forum va ishtirokchilarni rag'batlantirishga qaratilgan marosimi bilan o'z yakuniga yetdi. Navbatdagi bosqich joriy yilning 13-17-aprel kunlari Surxondaryo viloyatida bo'lib o'tadi.

**Azizbek YUSUPOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:  
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-446.  
30646 nusxada bosildi.  
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchesi muharrir: Avazbek Xudoyqulov  
Musahhih: Malohat Mingboyeva  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzili:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'ZA yakuni — 03:25

Qabulxonasi: (71) 233-56-33 Devonxonasi va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayti: www.yuz.uz (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.